

gan bo'ladi. Y-xromosomada joylashgan genlar faqat otadan o'g'il bolalarga o'tadi. Hozirgi vaqtda juda ko'p normal va patologik belgilarning jinsga bog'liq holda irsiylanishi o'rganib chiqilgan.



1. Qanday xromosomalar jinsiy xromosomalar deyiladi?
2. Qanday xromosomalar autosomalar deyiladi?
3. Qanday jinsnai geterogametali va gomogametali deyiladi?

### **58- §. 3- amaliy mashg'ulot. Birikkan holda irsiylanish va jins bilan bog'liq holda irsiylanishga doir masalalar yechish**

1. Pomidor o'simligida shoxlarining uzunligi bilan mevasining shaklini ifodalovchi genlar birikkan bo'lib, bir xromosomada joylashgan. Seleksioner uzun poyali (H) va yumaloq mevali (R) gomozigota pomidor bilan kalta poyali (h) va noksimon mevali (r) pomidorni chatishtirib,  $F_1$  da 110 ta,  $F_2$  da 1200 ta o'simlik yetishtirgan: a)  $F_2$  da uzun poyali va yumaloq mevasi qancha? b)  $F_1$  da necha xil gameta hosil bo'ladi? d)  $F_2$  da necha xil genotipik sind yuzaga keladi? e)  $F_2$  da necha o'simlik kalta poyali noksimon mevali bo'ladi?

2. Xitoy primulasi gulining ustunchasi va og'izcha rangini belgilovchi genlar bitta xromosomada joylashgan. Gul ustunchasining kaltaligi (L) dominant, uzunligi (l) retsessiv, ustuncha og'izchasinining yashil rangi (R) qizil rangi (r) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada ustunchasi qisqa gomozigota, og'izchasi qizil bo'lgan o'simlik uzun ustunchali yashil og'izchali o'simlik bilan chatishtirilib,  $F_1$  da 100 ta,  $F_2$  da 990 ta duragay olingan: a)  $F_2$  da necha xil gameta hosil bo'ladi? b)  $F_2$  da nechta o'simlik kalta ustunchali va yashil og'izchali? d)  $F_2$  da necha xil genotip hosil bo'ladi.

3. Makkajo'xori donining silliqligi burishganligi ustidan, rangliliyi rangsizligi ustidan dominantlik qiladi. Makkajo'xorining doni silliq va rangli navi, doni burishgan va rangsiz navi bilan chatishtirilib,  $F_1$  da 4152 ta doni silliq va rangli, 149 ta doni burishgan va rangli, 152 ta doni silliq va rangsiz, 4163 ta doni burishgan va rangsiz formalar olingan. Genlar orasidagi masofani aniqlang.